SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 22-dekabr | 353-8-119-Q/25 | Sherobod tuman hokimligi

Sherobod tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish;

— **xo‘jalik yurituvchi subyektlar** faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralarini shakllantirishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy

sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

— **budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar** esa faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralarini shakllantirishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi va xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga tatbiq etilishi.

2. Sherobod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Egamberdiyev) hamda tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash bo‘yicha quyidagi **takliflari ma’qullansin**:

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmagan miqdorda, xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) esa majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmagan miqdorda bo‘lishi **belgilansin**.

2026-yil uchun jami **98 ta ish o‘rni** zaxiraga qo‘yilsin, jumladan:

*— nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — **15,3 % (15 kishi)**;*

*— oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun — **1,02 % (1 kishi)**;*

*— kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun — **77,55 % (76 kishi)**;*

*— muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun — **1,02 % (1 kishi)**;*

*— jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun — **3,06 % (3 kishi)**;*

*— odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun — **2,04 % (2 kishi)**.*

3. 2026-yilda ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni ishga joylashtirish maqsadida davlat tashkilotlari tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

— zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining kamida 25 foizini yil boshlanishidan oldin, o‘n kundan kechiktirmay tayyor holda ta’minlashi va bu haqida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ma’lum qilishi;

— qolgan ish o‘rinlarini kalendar yilning birinchi choragida zaxiraga qo‘yishi va chorak yakunidan so‘ng o‘n kundan kechiktirmay ma’lumot taqdim etishi;

— ishga joylashtirish bo‘yicha har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasigacha axborot berib borishi shart.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash tartibi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 40-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq, belgilangan eng kam sondan ortiq miqdorda ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida oyiga BHMning 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 3, 13, 34, 38, 39, 40, 41-moddalariga asosan, ushbu qaror talablari bajarilmagan taqdirda ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 965-son qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 21-bandi, 2-qismiga muvofiq, zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini yaratmaslik uchun jarima to‘lash tashkilotni majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Sherobod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Egamberdiyev):

— ushbu qaror nusxasini 5 kun ichida 1-ilovada keltirilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

— ishga qabul qilish rad etilganda yoki ish o‘rinlari yaratilmaganda mansabdor shaxslarni belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortishni ta’minlasin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Xamrayev zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sherobod tumani hokimi **U.I.Alimov**

Sherobod tumani hokimining
2025-yil 22-dekabrdagi
353-8-119-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli**

RO'YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:					
				Nogironligi bo'lgan shaxslar soni		Nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**3290**	**123**	**98**	**15**	**1**	**76**	**1**	**3**	**2**
1	"SANITARIYA EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI SHEROBOD TUMAN BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200498411	88	5	**1**	0	0	1	0	0	0
2	"SHEROBOD TUMAN VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200498886	27	0	**1**	0	0	1	0	0	0
3	"SURXON-SHEROBOD IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI"	305914954	196	7	**1**	0	0	1	0	0	0

	DAVLAT MUASSASASI										
4	TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	200498238	1915	79	**24**	2	1	18	1	1	1
5	SHEROBOD TUMAN MADANIYAT BO‘LIMI	200498324	53	2	**1**	0	0	1	0	0	0
6	"SHEROBOD TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200497603	128	4	**2**	0	0	1	0	1	0
7	"SHEROBOD ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI DAVLAT KORXONASI	200498371	77	2	**1**	0	0	1	0	0	0
8	"SHEROBOD TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI DAVLAT KORXONASI	205520776	256	11	**2**	0	0	0	0	1	1
9	"SHEROBOD AGROSANOAT TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	205771734	45	2	**1**	0	0	1	0	0	0
10	"SHEROBOD TUMAN 2-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	207083773	63	2	**1**	0	0	1	0	0	0

11	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	207119813	77	2	**1**	0	0	1	0	0	0
12	"SHEROBOD TUMANI SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207142106	74	3	**1**	0	0	1	0	0	0
13	"MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI SHEROBOD TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	309857460	59	0	**1**	1	0	0	0	0	0
14	"1-SON UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246699	136	1	**1**	0	0	1	0	0	0
15	"2-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864728	96	3	**1**	0	0	1	0	0	0
16	"3-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246761	124	3	**1**	0	0	1	0	0	0
17	"4-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204792487	66	2	**1**	0	0	1	0	0	0

18	"5-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203451452	92	1	**1**	0	0	1	0	0	0
19	"6-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203449097	107	5	**1**	0	0	1	0	0	0
20	"7-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203478860	65	3	**1**	0	0	1	0	0	0
21	"9-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203511400	107	5	**1**	0	0	1	0	0	0
22	"11-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204687244	67	0	**1**	1	0	0	0	0	0
23	"12-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204688647	85	1	**1**	0	0	1	0	0	0
24	"13-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864735	60	2	**1**	0	0	1	0	0	0
25	"14-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203545019	100	4	**1**	0	0	1	0	0	0
26	"15-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246778	97	5	**1**	0	0	1	0	0	0
27	"16-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT	204792470	69	2	**1**	0	0	1	0	0	0

	MUASSASASI										
28	"17-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246739	94	1	**1**	0	0	1	0	0	0
29	"18-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864774	60	3	**1**	0	0	1	0	0	0
30	"19-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203527775	90	3	**1**	0	0	1	0	0	0
31	"20-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204795238	62	0	**1**	1	0	0	0	0	0
32	"21-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246746	104	2	**1**	0	0	1	0	0	0
33	"27-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246754	146	4	**1**	0	0	1	0	0	0
34	"28-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246722	94	2	**1**	0	0	1	0	0	0
35	"29-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204706299	66	2	**1**	0	0	1	0	0	0
36	"32-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203486851	75	3	**1**	0	0	1	0	0	0
37	"33-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT	203531219	99	2	**1**	0	0	1	0	0	0

	MUASSASASI										
38	"37-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205069394	50	2	**1**	0	0	1	0	0	0
39	"38-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204791132	88	4	**1**	0	0	1	0	0	0
40	"39-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205069403	61	3	**1**	0	0	1	0	0	0
41	"40-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246674	86	0	**1**	1	0	0	0	0	0
42	"43-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204791156	67	3	**1**	0	0	1	0	0	0
43	"44-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204791149	71	1	**1**	0	0	1	0	0	0
44	"45-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204792503	65	1	**1**	0	0	1	0	0	0
45	"46-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204789283	91	3	**1**	0	0	1	0	0	0
46	"47-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864799	61	3	**1**	0	0	1	0	0	0
47	"49-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"	206864743	54	1	**1**	0	0	1	0	0	0

	DAVLAT MUASSASASI										
48	"50-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204800214	62	3	**1**	0	0	1	0	0	0
49	"54-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864885	40	1	**1**	0	0	1	0	0	0
50	"55-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864767	48	0	**1**	1	0	0	0	0	0
51	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 56-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O'QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204687252	93	1	**1**	0	0	1	0	0	0
52	"59-SONLI UMUM TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205073684	84	1	**1**	0	0	1	0	0	0
53	"60-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204706267	72	1	**1**	0	0	1	0	0	0
54	"62-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864846	37	1	**1**	0	0	1	0	0	0

55	"64-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864861	50	0	**1**	1	0	0	0	0	0
56	"65-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206864807	46	1	**1**	0	0	1	0	0	0
57	"66-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203246714	75	3	**1**	0	0	1	0	0	0
58	"68-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207130549	86	2	**1**	0	0	1	0	0	0
59	"SHEROBOD TUMANI 70-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	306651981	63	2	**1**	0	0	1	0	0	0
60	"SHEROBOD TUMANIDAGI 74-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	309906684	45	0	**1**	1	0	0	0	0	0
61	"1-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM" DAVLAT MUASSASASI	207075799	39	0	**1**	1	0	0	0	0	0
62	"2-SONLI UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI"	207014747	48	1	**1**	0	0	1	0	0	0
63	"3-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT	207037361	30	0	**1**	0	0	1	0	0	0

	MUASSASASI										
64	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BOLIMI TASARRUFIDAGI 4-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075750	31	0	**1**	0	0	1	0	0	0
65	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BOLIMI TASARRUFIDAGI 5-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075735	46	1	**1**	0	0	1	0	0	0
66	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 9-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075743	35	0	**1**	0	0	1	0	0	0
67	"10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT	207076006	36	0	**1**	0	0	1	0	0	0

	MUASSASASI										
68	"13-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075996	43	0	**1**	0	0	1	0	0	0
69	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 14-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075972	50	1	**1**	0	0	1	0	0	0
70	"24 SONLI GULISTON" DAVLAT MUASSASASI	305333325	39	0	**1**	1	0	0	0	0	0
71	"27-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075774	38	0	**1**	1	0	0	0	0	0
72	"SHEROBOD TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 31-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207075688	43	1	**1**	0	0	1	0	0	0
73	"32-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI"	207075989	32	0	**1**	0	0	1	0	0	0

	DAVLAT MUASSASASI										